

**JINOYAT PROTSESSI ISHTIROKCHILARI XAVFSIZLIGINI TA`MINLASH CHOG`IDA OLINGAN
DALILLAR MAQBULLIGI**

Ibrogimova Kumush olim qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti jinoyat odil-sudlov
fakulteti 4-kurs talabasi Toshkent ,O`zbekiston Respublikasi

Telefon raqam:+99 891 919 18 04

Annotatsiya

Ushbu maqolada O`zbekiston Respublikasi jinoyat-protsessual qonunchiligida jinoyat protsess ishtirokchilarining- xususan,jabrlanuvchilar,guvohlar va boshqa protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta`minlashga qaratilgan choralarning dalillarning maqbulligiga ta`siri masalasi kompleks tarzda tahlil qilinadi.Tadqiqot davomida mazkur institutning xalqaro va milliy qonunchilik normalari qiyosiy –huquqiy usulda o`rganiladi.Jumladan , Rossiya Federatsiyasi ,Moldova Respublikasi ,Fransiya va Polsha davlatlarining qonunchiligi hamda sud amaliyoti misolida mazkur choralarmi qo`llashning nazariy va amaliy jihatlari tahlil etilib,ularning jinoyat jinoyat protsessida isbotlash jarayoniga ta`siri yoritib beriladi.

Kalit so`zlar: jinoyat protsessi; protsess ishtirokchilarining xavfsizligi ,jabrlanuvchi; guvoh; dalillarning maqbulligi; isbotlash jarayoni;himoya choralari;qiyosiy –huquqiy tahlil;xalqaro va milliy qonunchilik.

**ADMISSIBILITY OF EVIDENCE OBTAINED WHILE ENSURING THE SAFETY OF PARTICIPANTS IN
CRIMINAL PROCEEDINGS**

Ibrogimova Kumush Olim kizi

Tashkent State University of Law Faculty of Criminal Justice
4th-year student Tashkent, Republic of Uzbekistan

Contact phone: +99 891 919 18 04

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the impact of measures aimed at ensuring the safety of participants in criminal proceedings under the criminal procedure legislation of the Republic of Uzbekistan, particularly victims, witnesses, and other procedural participants, on the admissibility of evidence. In the course of the study, the international and national legal norms governing this institution are examined using the comparative legal method. In particular, based on the legislation and judicial practice of the Russian Federation, the Republic of Moldova, France, and Poland, the theoretical and practical aspects of the application of these measures are analyzed, and their influence on the process of proof in criminal proceedings is elucidated.

Keywords: Criminal procedure; safety of procedural participants; victim; witness; admissibility of evidence; process of proof; protection measures; comparative legal analysis; international and national legislation.

**ДОПУСТИМОСТЬ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ, ПОЛУЧЕННЫХ ПРИ ОБЕСПЕЧЕНИИ БЕЗОПАСНОСТИ
УЧАСТНИКОВ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА**

Иброгимова Кумуш Олим кизи

Ташкентский государственный юридический

Университет Факультет уголовного

Правосудия студентка 4 курса

г. Ташкент, Республика Узбекистан

Контактный телефон: +99 891 919 18 04

Аннотация

В статье комплексно анализируется вопрос влияния мер, направленных на обеспечение безопасности участников уголовного процесса в уголовно-процессуальном законодательстве Республики Узбекистан, в частности потерпевших, свидетелей и иных процессуальных лиц, на допустимость доказательств. В ходе исследования нормы международного и национального законодательства, регулирующие данный институт, изучаются с применением сравнительно-правового метода. В частности, на примере законодательства и судебной практики Российской Федерации, Республики Молдова, Франции и Польши анализируются теоретические и практические аспекты применения указанных мер, а также раскрывается их влияние на процесс доказывания в уголовном процессе.

Ключевые слова: уголовный процесс; безопасность участников процесса; потерпевший; свидетель; допустимость доказательств; процесс доказывания; меры защиты; сравнительно-правовой анализ; международное и национальное законодательство.

Jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslarning xavfsizligini ta'minlash masalasi jinoyat huquqiy munosabatlar tizimida doimiy muhokama markazida bo'lib kelayotgan dolzarb muammolardan biridir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ayrim hollarda jinoyat sodir etgan shaxslarning mansabi, ijtimoiy mavqei yoki nufuzi jinoyatni to'liq va xolisona ochishga to'sqinlik qilishi mumkin. Natijada mavjud dalillarning yo'qolishi, guvohlarning ko'rsatuv berishiga turli bosimlar o'tkazilishi holatlari yuzaga keladi.

Xususan, guvohlarga nisbatan tashqi bosimlar, tahdidlar ularning oila a'zolari yoki yaqin qarindoshlariga nisbatan qo'rqitishlar sababli ayrim hollarda guvohlarning yolg'on ko'rsatuv berishi yoki umuman ko'rsatuv berishdan bosh tortishi holatlari kuzatilmoqda. Shu bois jinoyat protsessida ishtirok etuvchi shaxslarning xavfsizligini ta'minlash nafaqat ularning huquqlarini himoya qilish, balki adolatli sud qarorlarini qabul qilishning muhim kafolati hisoblanadi.

Amaliyotda faqat guvohlar himoya qilinishi lozim degan noto'g'ri tushuncha shakllanib qolmasligi lozim. O'zbekiston Respublikasi 2019-yil 14-yanvardagi "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida himoya qilinuvchi shaxslar ro'yxati keltirilgan. Ular qatoriga jabrlanuvchilar, guvohlar, jamoat himoyachilari, gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilar, ularning himoyachilari, ekspertlar, mutaxassislar va tarjimonlar, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari hamda oila a'zolari kiradi.

Shu kabi holatlar amaliyotda ko'p kuzatilyotganligi sababli turli mamlakatlarda jinoyat protsessi ishtirokchilarining, xususan guvohning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini qo'riqlash

obyekti sifatida himoya qilishni tartibga soluvchi protsessual normalar ishlab chiqilgan. Milliy qonunchiligimizda Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida qonun loyihasi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu qonunning asosiy maqsadi jabrlanuvchilarning ,guvohlarning va jinoyat protsessi boshqa ishtirokchilarining hayoti, sog'lig'i hamda mol-mulkiga tajovuz tahdidi mavjud bo'lganda qo'llaniladigan jinoyatlarning oldini olishga yoki ularni fosh etishga ko'maklashadigan ,xavfsizlik va ijtimoiy himoya qilish choralari o'z ichiga oladigan chora-tadbirlar tizimini belgilashdan ,shuningdek ularni qo'llashning asoslari hamda tartibini aniqlashdan iboratdir. Ushbu qonunning 6-moddasida xavfsizlik choralari belgilangan bo'lib, bular quyidagilar:

- 1) himoya qilinuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiylikini ta'minlash;
- 2) shaxsni, uy-joyini va boshqa mol-mulkni qo'riqlash;
- 3) himoya qilinuvchi shaxsga maxsus individual himoya vositalarini va texnik vositalarni berish;
- 4) vaqtinchalik xavfsiz joyga joylashtirish;
- 5) boshqa yashash joyiga ko'chirish, ish (xizmat) yoki o'qish joyini o'zgartirish;
- 6) hujjatlarni almashtirish;
- 7) himoya qilinuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanilishini cheklash;
- 8) qamoqda yoki jazoni o'tash joylarida saqlanayotgan himoya qilinuvchi shaxsga nisbatan qo'shimcha xavfsizlik choralari ta'minlash.

Ushbu qonundan tashqari Jinoyat protsessual kodeksining tegishli normalarida jumladan **JPKning 18-moddasida** yopiq sud majlisi, **JPK 270-moddasida** shaxsning ma'lumotlarini oshkor qilmasdan so'roq qilish tartibi belgilangan.

Xorijiy mamlakatlarda jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash bo'yicha yondashuvlar turlicha. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-protsessual kodeksining 166-moddasi 9-qismiga muvofiq, agar jabrlanuvchi yoki guvohning xavfsizligiga tahdid mavjud bo'lsa, tergovchi ularning shaxsini sir saqlash choralari qo'llashi mumkin.

Moldova Respublikasining 2008-yil 16-maydagi "Guvohlar va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida shaxsni identifikatsiya qiluvchi ma'lumotlarni himoya qilish, tashqi ko'rinishni o'zgartirish, yashash joyini almashtirish kabi choralarga alohida e'tibor qaratilgan.

Fransiya jinoyat protsessida dalillarning qabul qilinishida "asimmetriya" tamoyili qo'llanilib, protsess ishtirokchilari o'rtasidagi tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi. Polsha sud amaliyotida esa dalil tushunchasiga keng yondashilib, sudyani ish holatlariga ishonira oladigan har qanday ma'lumot dalil sifatida baholanadi.

Yana bir muhim masalardan biri jinoyat protsessi ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash chog'ida olingan dalillar maqbulligi hisoblanadi. Ya'ni bunday vaziyatda olingan dalillar maqbulmi adolat tamoyillariga mos keladimi degan savol tug'ulishi tabiiy holdir.

Jinoyat protsessual kodeksining 81-moddasiga ko'ra, ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan - bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishni to'g'ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo'ladigan har qanday faktik ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha dalil hisoblanadi.

VP.Bojyevning fikriga ko'ra dalillar jinoyat protsessining yuragi bo'lib, ular qonuniy yo'l bilan olinmagan taqdirda, istalgan ishning natijasiga ishonch yo'qoladi.

Darhaqiqat dalillarning ahamiyati shu darajada kattaki, chunki ular bitta shaxsni ham oqlashi ham qoralashi mumkin. Shu sababli dalillarni to'plashda ularni baholashda va tekshirishda qonun talablariga qat'iy rioya qilish lozim.

Dalillarning xususiyatlari shunday zarur belgilarki, ularsiz dalillardan dalil sifatida foydalanish mumkin emas.

Bu xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

- 1) aloqadorlik
- 2) maqbullik;
- 3) ishonchlilik
- 4) ahamiyatlilik
- 5) yetarlilik

Agar dalillar JPKning 95 prim 1 moddada ko'rsatilgan asoslar orqali olingan bo'lsa nomaqbul dalil hisoblanadi. Ushbu normada 6 ta asos keltirilgan bo'lib :

- 1) jinoyat protsessi ishtirokchilariga yoki ularning yaqin qarindoshlariga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llagan holda;
- 2) ularni soxtalashtirish (qalbakilashtirish) yo'li bilan;
- 3) gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining himoyaga bo'lgan huquqlari, shuningdek tarjimon xizmatlaridan foydalanish huquqi buzilgan holda;
- 4) jinoyat ishi bo'yicha protsessual harakatning mazkur jinoyat ishini yuritishni amalga oshirish huquqiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan bajarilishi natijasida;
- 5) noma'lum manbadan yoxud jinoyat ishini yuritish jarayonida aniqlash mumkin bo'lmagan manbadan;
- 6) jabrlanuvchi, guvoh, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining surishtiruvdagi, dastlabki tergovdagi sudda dalillar majmui bilan o'z tasdig'ini topmagan ko'rsatuvlaridan olingan bo'lsa, ular dalil sifatida maqbul emas deb topiladi.

Ushbu keltirgan asoslar orqali to'plangan har qanday dalil ish uchun yaroqsiz hisoblanadi va maqbul emas deb topiladi ". Dalillar maqbulligiga oid jinoyat-protsessual qonuni normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida" gi 24-sonli Oliy sud plenumiga ko'ra Nomaqbul dalillar yuridik kuchga ega bo'lmay, ulardan **JPK 82-84-moddalarida** nazarda tutilgan holatlarni isbotlash uchun foydalanish hamda ularni ayblov asosiga qo'yish mumkin emas.

Surishtiruv, tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi va dastlabki tergov organlari hamda sudlarning e'tibori shunga qaratilsinki, isbot qilish jarayonida dalillarning maqbulligi to'g'risidagi masalani to'g'ri hal etish muhim o'rin tutadi.

Dalillar maqbulligining shartlari quyidagilar:

dalil tegishli subyekt, ya'ni dalilni olish bilan bog'liq bo'lgan protsessual harakatni o'tkazishga vakolatli shaxs tomonidan olingan bo'lishi)

faktga oid ma'lumotlar faqat **JPK 81-moddasining** ikkinchi qismida qayd etilgan manbalardan olingan bo'lishi;

dalil uni olish bilan bog'liq protsessual harakatni o'tkazishga oid qoidalar va tartibga rioya etilgan holda olingan bo'lishi;

dalilni olishda tergov va sud harakati jarayoni va natijalarining qayd etilishiga doir qonunning barcha talablariga amal qilingan bo'lishi shart.

Xorij tajribasi ya'ni xalqaro miqyosda ham jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashda olingan dalillar bo'yicha ko'plab nizolar kelib chiqqan.Ularda asosan guvohlarning shaxsiy ma'lumotlari sir tutilishi ya'ni anonim guvohlik atamasi bilan ataladi.Misol tariqasida-Vasilyev va boshqalar Rossiyaga qarshi 22.09.2020 (ariza N 38891/08) sonli ko'rib chiqilgan sud ishini keltirishimiz mumkin.Ushbu sud ishida Rossiya hukumati tomonidan terrorchilikda ayblangan Petr Vasilyev va boshqalar anonim guvohlar Makarov va Medvedovlarning ko'rsatuvlaridan norozi bo'lishgan.Chunki ayblanuvchi va advokatlar guvohlarni bevosita ko'rmagan anonim bo'lsa ham ularning ovozlari eshitilmagan.Sudning ta'kidlashicha anonim guvohlarning dalillari ayblov hukmini hal qiluvchi asos sifatida qabul qilingan ekan.Lekin anonim guvohlarning dalillarini tekshirish ularning ovozlari eshitish imkoni ta'minlanmagan.Sud aniqlashicha,guvohlarning anonimligi uchun yetarli asoslar mavjud emas .Sud materiallarida ularning xavfsizligiga tahdid borligi haqida hech qanday dalil bo'lmagan,bundan tashqari ishda ishtirok etayotgan boshqa guvohlar xavfsizliklarini ta'minlashni so'rab murojaat qilishmagan ularda bunday qo'rquv mavjud bo'lmagan.Shu sababli Yevropa sudi anonim guvohlarning ko'rsatmasi asosida chiqarilgan hukm konvensiyaning 6 –moddasi 1 va 3 bandlarini buzgan deb topgan.

Yevropa sudining fikricha agar guvohning shaxsi sir tutilsa ,sud bu qaror uchun yetarli asoslar borligini aniqlashi lozim.Aks holda bunday dalillar asosida chiqarilgan hukmlar nomaqbul hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan holatlar hayotimizda ko'p uchramoqda.Shu sababli ham sudlar yoki sudgacha bo'lgan bosqichda tergov organlari protsess ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash uchun yetarli asoslar bormi ya'ni ushbu shaxsga real xavf rostdan ham mavjudmi shuni aniqlashlari lozim.Aks holda bunday shaxslardan olingan dalillar ham nomaqbul dalillar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash chog'ida olingan dalillar faqatgina qonun talablariga qat'iy rioya etilgan taqdirda maqbul hisoblanadi. Xavfsizlik choralari asossiz qo'llanilishi dalillarning nomaqbul deb topilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli tergov va sud organlari har bir holatda shaxsga real tahdid mavjudligini aniqlashi va himoya choralari faqat qonun doirasida qo'llashi lozim.

References:

- 1.O'zbekiston respublikasi jinoyat protsessual kodeksi
2. Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida qonun 14.01.2019 yildagi O'RQ-515-son
3. M.X.Kadirova Jinoyat protsessida dalillar va isbotlash .Darslik Toshkent, 2024 B,12-13
4. Umarxonov.A.Sh. Odil sudlovga ko'maklashuvchi shaxslarning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy choralarni takomillashtirish muammolari: Yurid. fanlari nomzodidiss. avtoreferati. –T.: IIV Akademiyasi, 2004. B,19
- 5.Ashurov Nodir Nayumovich Jinoyat protsessida shaxs xavfsizligini himoya qilish bo'yicha ayrim xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tahlili .O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi . B,6-7
- <https://cyberleninka.ru/article/n/jinoyat-protsessida-shaxs-xavfsizligini-himoya-qilish-bo-yicha-ayrim-xorijiy-mamlakatlar-qonunchililigi-tahlili/viewer>
6. A.Umarkhanov Ensuring safety of participants in criminal processes during court trial.P-40
- 7.Application no.38891/08 Petr Nikolayevich Vasilyev and others against Russia <https://hudoc.echr.coe.int/eng#%7B%22itemid%22:%5B%22001-111299%22%5D%7D>

8. https://continent-online.com/Document/?doc_id=30397729

Уголовно-процессуальный кодекс Республики Молдова от 14 марта 2003 года № 122-XV

9. https://nrm.uz/contentf?doc=405250_ugolovno-

[processualnyy_kodeks_rossiyskoy_federacii&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistan](https://nrm.uz/contentf?doc=405250_ugolovno-processualnyy_kodeks_rossiyskoy_federacii&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistan)

Уголовно-процессуальный кодекс российской федерации

.